

QADRIYATLAR FALSAFASINING MAZMUN-МОНІЙАТИ***Maxsumov Xamza Valixonovich****O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti tadqiqotchisi***ОСНОВНОЕ СОДЕРЖАНИЕ ФИЛОСОФИИ****ЦЕННОСТЕЙ*****Максумов Хамза Валихонович****Соискатель института повышение квалификации МВД Республики Узбекистан***KHMaxsumov@
mail.ru****THE CONTENT OF THE PHILOSOPHY OF VALUES*****Maxsumov Xamza Valixonovich****Scientific candidate at the Institute of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan*

Annotatsiya: Mazkur maqolada qadriyatlar falsafasining mazmun mohiyati yoritilgan. Qadriyatlarning mohiyati, mazmuni bilan bog'liq muammolar tahlili uzoq tadrijiy rivojlanish tarixiga ega. Vatanimiz sivilizatsiyasida qadriyatlar uyg'unligi o'ziga xos bir emas ikki renessansning vujudga kelishiga zamin yaratgan. Bugungi kunda barcha ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlarga hamohang ravishda oilaviy qadriyatlarga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Kalit so'zlar: qadriyat, axloq, me'yor, qoida, oilaviy qadriyatlar, qadriyatlar falsafasi.

Аннотация: В данной статье описывается основное содержание философии ценностей. Анализ проблем, связанных с сущностью и содержанием ценностей, имеет длительную историю постепенного развития. Гармония ценностей в цивилизации нашей страны создала почву не для одного, а для двух ренессансов. Сегодня в рамках всех социально-экономических и политических реформ особое внимание уделяется семейным ценностям.

Ключевые слова: ценность, мораль, норма, правило, семейные ценности, философия ценностей.

Abstract: This article discusses the content of the philosophy of values. The analysis of problems related to the essence and content of values has a long history of gradual development. The harmony of values in the civilization of our homeland has created the basis for the emergence of not one, but two unique renaissances. Today, in parallel with all socio-economic and political reforms, special attention is paid to family values.

Keywords: value, morality, norm, rule, family values, philosophy of values.

KIRISH / ВВЕДЕНИЕ / ABSTRACT

Qadriyatlarning mohiyati, mazmuni bilan bog'liq muammolar tahlili uzoq tadrijiy rivojlanish tarixiga ega. Insonlar qadim zamondardanoq o'zlarini o'rabi turgan olam, undagi narsa, voqeja va hodisalar, odamlar o'rtasidagi munosabatlarga baho bergenlar, ularning qadri to'g'risida fikr yuritganlar. Zamonlar o'tishi, jamiyat rivoji davomida bu boradagi muammolar ko'payib borgan sari, ularni hal qilishning ahamiyati ham ortib bormoqda.

O'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari bo'lmish Spitamen, Alpomish, To'maris va Shiroq

kabi dostonlarda vatanparvarlik, xalq va yurt ozodligi uchun fidoiylik tasvirlangan bo'lib, olamning qadri, uning cheksizligi, koinot va odamzod aloqalari, inson umrining ma'nosи, mazmuni, maqsadi hamda botirlik, oqillik, hokisorlik, yaxshilik, vafodorlik, vatanparvarlik kabi qadriyatlarga izoh berilgan. Shuningdek, qadriyatlars falsafasi diniy dunyoqarashlar va ularning eng qadimgi shakllarida ham o'z aksini topgan bo'lib, muayyan ilohiy qadriyatlarni milliy qadriyatlар bilan qorishiq holda ifodalab borgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS)

Qadriyatlar bir qator dunyoqarashlarning asosida yotganligi va o'sha dunyoqarashlarning markaziy qismini tashkil qilganligi bois ko'plab mutafakkirlar qadriyatlarning falsafiy tahliliga oid qarashlar va xulosalarni ilgari surganlar. Qadriyatlar falsafasiga oid tahlillar ko'hna Sharq va Markaziy Osiyo mutafakkirlari tomonidan ham qayd etilgan. Jumladan, qadriyatdar falsafasiga oid qarashlar Al-Xorazmiy, Al-Forobi, Al-Beruniy, Ibn Sino, Najmuddin Kubro, Al-Buxoriy, At-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Mirzo Ulugbek, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Boborahim Mashrab, Mirzo Bedil, Maxtumquli, Mahmudxoja Behbudiy, Abdulla Avloniy kabi mutafakkir va olimlarning ilmiy merosida qadriyatlar falsafasiga oid tahlillar berilgan. Zero, qadriyatlarning falsafiy tahlili zaminimizda yaratilgan qadimgi naqlar, rivoyatlar, afsona, hikoyat, dostonlarga, ya'ni xalq og'zaki ijodi namunalariga borib taqalishi va ushbu xalq og'zaki ijodida ko'proq umumbashariy va umuminsoniy qadriyatlarga e'tibor berilganligi sababli ularning mohiyati va mazmuni ham keng talqin qilinganligi ayni haqiqatdir [1].

Dinlarning tarixiy shakllari takomillashib borgani sari, ulardagi qadriyatlar tizimi ham yangi qirralarini namoyon qilib boravergan. Ajqdodlarimizning qadimgi kitobi Avesto diniy-falsafiy merosimizning eng yorqin namunasi, qadimgi xalqlarimizning umuminsoniy qadriyatlari yoritib berilgan asardir. Avesto zardushtiylikning muqaddas kitobi bo'lganligidan, unda bu dinning qadriyatlar tizimi o'z ifodasini topgan. Shu bilan birga kitobda umuminsoniy qadriyatlarga, ularning inson ma'naviyati va amaliy faoliyati uchun ahamiyatiga katta o'rinn berilgan. Asarda yaxshilik, barkamollik, hurfikrlilik, insonparvarlik kabi xislatlar namoyon etilgan. Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra insonlar yaxshilik, yorug'lik kuchlariga ergashishi, yaxshilikni yomonlikdan, adolatni haqsizlikdan farqlab olishi, hayoti davomida ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amalda bo'lishi lozimligi keltirilgan. Insonning bu jarayondagi qadri esa, yaxshilikning g'alabasi uchun kurashda befarq turmasligi, yashash tarzi, ma'naviy qiyofasi, ijtimoiy faoliyatida o'z ifodasini topib o'ziga xos islomgacha bo'lgan davrdagi tabiiy-ilmiy va axloqiy qadriyatlarning rivojlanishiga zamin yaratgan.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS)

Markaziy Osiyoda qadriyatlar to'g'risidagi qarashlar rivojida VIII-XII asrlar katta ahamiyatga egadir. Bu davrda islam dinining ilohiy qadriyatlari xalqlarimiz tarixi va madaniyatiga nihoyatda katta ta'sir ko'rsatgan. Vatanimiz sivilizatsiyasida qadriyatlar uyg'unligi o'ziga xos bir emas ikki renessansning vujudga kelishiga zamin yaratgan. Natijada, Xorazmiy, Forobi, Beruniy, Ibn-Sino, Ulugbek kabi mutafakkirlar, al-Buxoriy, at-Termiziy, Kubro, Ahmad Yassaviy, Naqshband kabi ilohiyot ilmining zabardast allomalari, Lutfiy, Navoiy, Bobur, Bedil, Mashrab kabi allomalarning kamolotida nafaqat islam, balki sivilizatsiyamiz madaniyati va qadriyatlarning ta'siri ham beqiyos bo'lgan. Qisqacha aytganda o'sha davrdagi ma'naviy qadriyatlarga oid ijtimoiy munosabatlar, kishilarining yashash tarzi, moddiy ehtiyojlari, qiziqishlari, manfaatlari, talablari va maqsadlari bilan uzviy bog'langan holda rivojlanib borgan [2].

Sharq xalqlari orasida mashhur bo'lgan qarashlari to'g'risida ham shunday fikrni aytish mumkin. Yuqorida nomlari tilga olingan asarlarga kelganda esa dunyoda ularga qiyoslaydigan, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning umumiyligi tizimlari izohlangan kitoblar barmoq bilan sanarli.

Tasavvufning eng asosiy namoyandalaridan biri bo'lgan Ahmad Yassaviy (1105-1166) diniy, ma'naviy-ahloqiy qadriyatlarning o'sha zamonga mos keladigan shartlarini islam dini nuqtai nazaridan ta'riflab bergan. Chunonchi, Ahmad Yassaviy o'zining "Devoni hikmat" asarida ma'naviy qadriyatlarning asosiy shakllari – poklik, hayo, bardosh va sabr-qanoat, chidam, beozorlik, hokisorlik kabi xislatlarga ta'rif bergan. Zero, aynan Yassaviya tariqati Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan, madaniy merosga katta ta'sir ko'rsatib, ushbu tariqatning ma'naviy qadriyatlari keyinchalik mo'g'ul istilosidan ozodlikka erishish g'oyalarini vujudga keltirgan. Shuningdek, ushbu ta'limot mo'g'ullar istilosidan oldingi davr qadriyatlarni, temuriylar davri bilan bog'laydigan ma'naviy asoslardan biri bo'lgan desak ham xato bo'lmaydi [3].

Qadriyatlar falsafasida naqshbandiya tariqatining ham ilgari surgan g'oya va qarashlarning ham o'z o'rni beqiyosdir. Naqshbandiya tariqati Sharqda keng yoyilgach unga Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy kabi Sharqning zabardast mutafakkirlari chuqur hurmat bilan qaraganlar. Bunda tariqat g'oyasidagi "qo'l ishda, ko'ngil

Yaratganda” bo‘lishi, halollik, kamtarinlik kabi komil insonning asosiy fazilatlar targ‘ib qilingan [4].

XIX asrning oxirlari va XX asr boshlarida yurtimizda jadid falsafasining o‘ziga xos g‘oyalari kurtak ochib boshlaganda sharqona qadriyatlarning o‘ziga xos jadidlarga xos yo‘nalishi vujudga kelib boshlagan.

Xususan, Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud ahloq” asarida o‘ziga xos ma’naviy qadriyatlар tizimi ta’riflab berilgan bo‘lib, asarda g‘ayrat, shijoat, qanoat, ilm, sabr, intizom, nafs, vijdon, vatanni sevmoq, iffat, hayo, idrok, lafz, iqtisod, itoat, sadoqat,adolat, muhabbat va avf kabi qadriyatlар “yaxshi xulqlar” nomi ostida tahlil qilingan. Ushbu asarda tilga olingan qadriyatlар o‘sha davrda yurtimizda ma’naviy tushunchalarning ko‘lami qanchalik keng bo‘lganligini, tilimizning naqadar boyligidan dalolatdir [5].

O‘tmish allomalarining umuminsoniy qadriyatlarni sharqona ta’riflash va tavsiflash orqali qadriyatlар falsafasidagi o‘ziga xos Sharqona qadriyat mezonlarning shakllangani guvohi bo‘lamiz.

MUHOKAMA(ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION)

Qadriyatlар falsafasi namoyon bo‘lishidagi turli holatlarning tahlilidan voqeа va hodisalarning ketma-ketligi, vaqt va zamon realliklarini hisobga olish, bunday holatlarning uzlusiz takrorlanishi esa qadriyat tizimlarining ijtimoiy voqelik va taraqqiyot bilan bog‘liqligini ifodalaydigan quyidagi muhim xulosaga kelish imkonini bermoqda. Ana shu xulosa qadriyatlар tizimining ijtimoiy taraqqiyot bilan bog‘liqlik qonunining asosiy mazmunini ifodalagan holda hozirgi zamondagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etib, mazkur qoidalarni amaliyotga tadbiq etishga zamin yaratdi. Aniqroq aytganda mustaqillik qadriyati shakklandi. O‘zbekistonda ro‘y berayotgan murakkab o‘zgarishlarning qadriyatlар sohasida namoyon bo‘lishi respublika ijtimoiy hayotidagi o‘zgarishlarning qadriyatlар omili va mezoni bilan bog‘liq jihatlariga amaliy ta’sir ko‘rsatib, istiqlolga asoslangan yangi qadriyatlар tizimining shakllanishiga olib keldi. Natijada kishilarda qadriyat tuyg‘usini to‘g‘ri talqin qilish orqali uni O‘zbekistondagi yangi islohotlarning tarkibiy qismiga singdirib borishga imkon berildi. Bunda inson – jamiyatning eng oliy qadriyati, odamzod naslini davom ettiruvchi avlod vakili, har bir shaxsning yashash huquqi daxlsizligi va hamma

narsa inson uchun shiori ostida inson qadrini oshirish – taraqqiyotning asosiy mezoniga aylantirildi.

So‘nggi yillarda Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lidagi tarixiy islohotlar, avvalo, inson qadri, xalq manfaatlarini har tomonlama himoya qilish harakatlari odamlarning ertangi kunga bo‘lgan ishonchini yanada mustahkamlash, xalqimizni har tomonlama rozi qilishga qaratilmoqda. Barcha sohalar qatori xalqimizning tinch va osoyishta hayoti hamda milliy manfaatlarimizni ishonchli himoya qilishga qodir bo‘lgan huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini tubdan takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minalash masalasi ustuvor ahamiyatga ega bo‘lib, Vatanimiz, fuqarolar daxlsizligini ta’minalash, tinchlik va osoyishtalikning huquqiy assoslarni yaratish yo‘lida muhim natijalarga erishib kelinmoqda.

Barcha ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlarga hamohang ravishda oilaviy qadriyatlarga ham alohida e’tibor qaratilib, oila nafaqat inson naslini davom ettirish omili sifatida, balki jamiyat a’zolarini, ayniqsa o‘sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydigan asosiy tarbiya o‘chog‘i ekanligiga e’tibor qaratilmoqda.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)

Bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi – xalq tinchligi va osoyishtaligini ta’minalash, mahallalardagi ijtimoiy ahvolni o‘rganish, muammoli va turmush sharoiti og‘ir bo‘lgan oilalarni o‘z vaqtida aniqlab, ularni har tomonlama qo’llab-quvvatlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad aholining farovon hayotini ta’minalash orqali sodir etilishi mumkin bo‘lgan huquqbuzarlik va jinoyatchilikni oldini olishga qaratilgan. Oilaning tinchligi, farovonligi va barqaror rivojlanishi mamlakat tinchligi va aholining turmush darajasini belgilovchi muhim omillardan biri sanaladi.

Bugun yurtimizda ma’muriy hududlarda uyma-uy yurish orqali manzilli ishlarning olib borilishi natijasida mahallalarni har tomonlama o‘rganish, ayniqsa muammoli va notinch, ijtimoiy jihatdan kam ta’minalangan oilalarni hamda ijtimoiy og‘ir ahvolga tushib qolgan ayollarni aniqlab ularni ijtimoiy hayotning faol va namunali kishilariga aylantirish ishlari jadal amalga oshirilmoqda. Aholini ijtimoiy, moddiy va ma’naviy jihatdan qo’llab-quvvatlash hamda jinoyatchilikni barvaqt aniqlash va uni keltirib chiqaradigan omillarni o‘z

vaqtida bartaraf etishga qaratilgan bir qator manzilli dasturlar va chora-tadbirlar ham amalga oshirilmoqda. Xususan, oilaviy qadriyatlarning yaratilganligi mamlakatimizdagi barcha mahalla va oilalarni hamda ulardagi mavjud muammolarni o‘rganib ularning yechimi bo‘yicha aniq manzilga yo‘naltirilgan ishlarni amalga oshirishga zamin yaratmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўрта Осиё халқлари ҳурғиқрлилиги тарихидан. – Т.: Фан, 1990. 104 б.

2. Ўзбекистонда ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихидан.– Т.: Ўзбекистон, 1995. 6-бет.
3. К.Назаров. Қадриятлар фалсафаси (Аксиология). Тошкент: Файласуфлар миллий жамияти нашриёти – 2004. 85 б.
4. С.Рахмонов. Икки тариқатнинг буюк даҳолари (Мавлоно Жалолиддин Румий ва Ҳожа Баҳоуддин Нақшбанд мисолида). Самарқанд: СамДЧТИ нашриёти, 2021. 148 б.
5. А.Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. Т., 1992.

